



UO'K: 378.147:502.13

**OLIY TA'LIMDA EKOLOGIK TARBIYA MEKANIZMLARINI RIVOJLANTIRISHNING  
MAQSAD VA VAZIFALARI****ЦЕЛИ И ФУНКЦИИ РАЗВИТИЯ МЕХАНИЗМОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ  
В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ****THE GOALS AND FUNCTIONS OF THE DEVELOPMENT OF ENVIRONMENTAL  
EDUCATION MECHANISMS IN HIGHER EDUCATION****Mamajonov Shuxratjon Asqarovich**

Farg'ona davlat universiteti kimyo kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

**Annotasiya**

Maqolada oliy ta'limda ekologik tarbiya mexanizmlarini rivojlantirishning maqsad va vazifalari, bu boradagi tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar, didaktik jarayonda ekologik tarbiya berish texnologiyalari, ekologik tarbiya berish shakllari va asosiy turlari batafsil yoritilgan.

**Аннотация**

В статье подробно описаны цели и функции развития механизмов экологического воспитания в высшем образовании, соответствующие нормативные правовые акты по этому вопросу, технологии экологического воспитания в дидактическом процессе, формы и основные виды экологического воспитания.

**Abstract**

The article describes in detail the goals and functions of the development of mechanisms of environmental education in higher education, relevant regulatory legal acts on this issue, technologies of environmental education in the didactic process, forms and main types of environmental education.

**Kalit so'zlar:** ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, ekologik tarbiya berish texnologiyalari, ekologik tarbiya mexanizmlari, ekologik tarbiya berish shakllari.

**Ключевые слова:** экологическое образование, экологическое воспитание, технологии экологического воспитания, механизмы экологического воспитания, формы экологического воспитания.

**Key words:** environmental education, environmental upbringing, technologies of environmental education, mechanisms of environmental education, forms of environmental education.

**KIRISH**

Oliy ta'limda ekologik tarbiya talablari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 434-son qarorida aks etgan bo'lib [1], uzluksiz ta'lim tizimida ekologik ta'limni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga izchillik bilan bosqichma-bosqich tatbiq qilish va shu asosda ekologik ta'limning samaradorligini yangi bosqichga ko'tarish vazifalari belgilangan. Shuningdek, ta'lim dasturlarini mavjud ekologik muammolar va ularni bartaraf etish vazifalaridan kelib chiqib takomillashtirish; ta'lim oluvchilarning e'tiborini umumbashariy ekologik muammolarga qaratish orqali ularning ona tabiatning qayta tiklanmaydigan manbalarini saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanish borasidagi mas'uliyatini kuchaytirish; ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatli davlat organlari va ta'lim sohasining o'zaro manfaatli hamkorligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Binobarin, ekologik ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish va didaktik tizimlarga joriy etish, ekologik tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish, kadrlar tayyorlash tizimi samaradorligini hamda barqaror rivojlanish kafolatlarini va ustuvorligini ta'minlovchi normativ-huquqiy, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish bugungi kundagi dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli qarori[2] bilan tasdiqlangan Konsepsiyada ta'kidlanganidek, tarbiya va

ta'limni bir-biridan ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlariga ega, yuksak manaviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi. Ushbu Konsepsiyani ustuvor yo'nalishlari sifatida ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish, homiladorlik davridan boshlab 30 yoshgacha davom etadigan uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-ona, tarbiyachi, o'qituvchi, uzluksiz ta'lim muassasalari va mahalla jamoatchiligini o'zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish kabi vazifalar belgilanganligini ta'kidlab o'tish o'rinni bo'ladi. Ushbu vazifalardan kelib chiqib biz ham o'z tadqiqot ishimiz davomida uzluksiz ma'naviy tarbiya bilan bevosita chambarchas bog'liq bo'lgan ekologik tarbiyani yoshlar ongiga singdirish, uni amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdik [3].


### ASOSIY QISM

Ta'lim sohasidagi islohotlar, bugungi kunda shu darajaga yetdiki, bo'lajak mutaxassis o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lishi uchun oliy ma'lumotning o'zi yetarli emas, degan umumiy xulosaga kelindi. Bu esa yangi texnologiyalar joriy etilayotgan, zamon shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda bo'lajak mutaxassisdan nafaqat o'z sohasini, shu bilan birgalikda axborot kommunikatsion texnologiyalarni va chet tillarini mukammal bilishni taqozo etmoqda.

Oliy ta'lim mazmunida jamiyatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning barcha sohalari, fan, ta'lim tizimiga taalluqli bir qator strategik ahamiyatga ega yo'nalishlar qamrab olingan. Undan kelib chiqadigan vazifalar tizimda faoliyat olib borayotgan mutaxassislardan yangilanayotgan O'zbekiston ta'lim siyosatining mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq anglashni, ularning ijrosiga nisbatan taraqqiyot mezonlari asosida ijodiy yondashuvni talab qiladi.

Globalashuvning mohiyati va xususiyatlarini chuqur o'rganish unga moslashish, yo'nalishlarini kerakli tarzda o'zgartirish imkoniyatini yaratadi. Bundan ko'rinadiki, globalashuv jarayonidan ijobiy va ijodiy foydalanishning usul va vositalarini, mexanizmlarini ilmiy asosda ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. 2020-yilda butun dunyoda kuzatilgan pandemiya sharoiti fikrimiz to'g'riligini yana bir karra tasdiqlaydi. Albatta, bunday sharoitda ta'lim tizimida globalashuv jarayonlariga moslashuvchan, u bilan hisoblashadigan islohotlar muhim rol o'ynaydi.

Biz tadqiqot davrida oliy ta'limda ekologik tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish uchun bo'lajak mutaxassislarning ekologik madaniyati va ekologik kompetensiyalarini rivojlantirish, didaktik jarayonda ekologik tarbiya berish texnologiyalarini tatbiq etishga kirishdik (1-rasmga qarang).



1-rasm. Talabalarda ekologik ongni rivojlantirishga mo'ljallangan tarbiya texnologiyalari maqsadi

Rasmda ifodalanganidek, talabalarda ekologik ongini rivojlantirish texnologiyalaridagi asosiy komponentlardan biri ekologik tarbiyadir.

Ekologik tarbiya - o'zaro bog'liq bo'lgan maqsad, tamoyillar, mazmun, vositalar, usullardan iborat elementlarni o'z ichiga olgan pedagogik tizim. Bu tizim maqsadi ekologik tarbiyani amalga oshirish xususiyatida o'z ifodasini topadi.

Ilmiy adabiyotlar, manbaalar tahlilidan aniq bo'ldiki, bugungi kunda ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi uchun aniq va umumiy qabul qilingan ta'rifi yo'q. Ayrim hollarda maqsad "ekologik jihatdan savodli shaxsni tarbiyalash" (I.N.Ponomareva) [4]; boshqalarda – "ijtimoiy-tabiiy muhitga mas'uliyatli munosabatni tarbiyalash" (V.M.Minayeva, T.I.Tarasova, A.E.Tixonova); uchinchi – "ekologik ongini shakllantirish" (E.Turdiqulov, N.Egamberdiyeva,); to'rtinchi - "ekologik madaniyat" (A.V.Mironov, L.P. Saleyeva, I.D.Zverev).

I.D.Zverev [5] ekologik tarbiya maqsadi "ekologik madaniyat" mohiyatidan kelib chiqib qaralishini ta'kidlaydi va ekologik tarbiya vazifalarini ekomadaniyat tushunchasining sifat belgilarining namoyon bo'lishida ko'rsatadi, ya'ni:

-inson va ijtimoiy-tabiiy muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ijobiy ilmiy va amaliy tajribasini boyitish;

-shaxs va jamiyatning tabiatga, moddiy, ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarga mas'uliyatli munosabatini shakllantirish;

-hayotning barcha shakllarining ustuvorligini inson mavjudligining sharti sifatida bilish va tasdiqlash;

-"Tabiat-inson" tizimini optimallashtirish nuqtai nazaridan insonning har tomonlama rivojlanishini, uning mayl, ijodiy qobiliyatlar va salomatligi farovonligini ta'minlash.

Ekologik tarbiya mexanizmini takomillashtirish ekologik ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari va usullarini didaktik tizimlarga joriy etishda o'z ifodasini topadi. Buning uchun, avvalo, o'quv dasturlari, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalarining ilg'or xalqaro dasturlarga moslashtirilishi maqsadga muvofiq. Tahsil oluvchilarning kreativ, analitik, nostandart fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun o'zining yangilangan shakl va mazmuniga ega darsliklar yaratish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoniga binoan, mamlakatimizda oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish vazifalari belgilandi [6].

Oliy ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya mexanizmlarini rivojlantirish samaradorligini baholash va takomillashtirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish bo'yicha ham salmoqli ishlarni amalga oshirish zarurati mavjud.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-sinov ishlarining dastlabki natijalari ta'limning ekologik bilimlarni rivojlantirish innovatsion mexanizmini joriy etish o'zining ijobiy samarasini berishi ayon bo'ldi.

Oliy ta'limning ekologik tarbiya berish shakllari - rasmiy, norasmiy va informal ta'limdir. Rasmiy ta'lim jarayonining mazmuni oldindan belgilab qo'yiladi va talabalar tomonidan o'zgartirilmasligini nazarda tutadi. Norasmiy mazmuni esa o'zgaruvchan bo'lib, o'quv jarayonining barcha ishtirokchilarining o'zaro kelishuvi bilan belgilanadi. Informal ta'lim erkin kundalik muloqotga asoslangan bo'ladi.

Oliy ta'limning ekologik tarbiya berish doirasidagi asosiy turlariga keladigan bo'lsak, quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin.

1) tez rivojlanayotgan yuqori texnologiyalarni ta'minlaydigan ekologik bilimlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan elita;

2) gumanitar, texnik va muhandislik bilimlarini tarqatishni ta'minlovchi ommaviy ta'lim;

3) ijtimoiy - iqtisodiy o'zgarishlar natijasida ekologik barqarorlikni ushlab turuvchi ijtimoiy (qo'shimcha) ta'lim.

Yuqoridagi maqsadlardan kelib chiqib, oliy ta'limdagi tarbiya mexanizmlarining ketma-ketligini, asosiy vazifalarini quyidagicha belgilashimiz mumkin:

1. Har bir talabani individual xususiyatlari, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olgan holda barkamol rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

2. Talabalarning kasbiy va madaniy bilimlarining umumiy darajasini ko'tarish;

3. Ta'lim sifatini oshirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, ilg'or xorijiy tajribalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish;

4. Talabalarga auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda atrof-muhit muhofazasiga doir ekologik bilimlarni maqsadli va tizimli yetkazish bo'yicha innovatsion yondashuvlarni yo'lga qo'yish;

5. Talabalarda ekologik bilimlarini rivojlantirishga individual yondashuv, bunda talabalarning bilim darajasidan kelib chiqib, ta'lim traektoriyasini belgilash, ya'ni ularning individual rivojlanish "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish;

6. Mintaqaviy, mintaqalararo va tarmoq maqomiga ega bo'lgan keng ko'lamli ta'lim, ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy dastur va loyihalarni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish va imkoniyatlarni oshirish;

7. Ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini yo'lga qo'yish.

### XULOSA

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, oliy ta'limda ekologik tarbiya mexanizmlarini rivojlantirish maqsadi va vazifalari ijtimoiy o'zgarishlarga yuz tutib, shaxsning butun hayoti davomida malakaviy, moslashuv va integratsion ehtiyojlarini qondirishga ixtisoslashgan o'z resurslari va harakat mexanizmlarini kuchaytiradi. Ushbu tizimda jamiyat uchun chinakam muhim bo'lgan aniq ekologik maqsadlar, vazifalar va funksiyalar mavjud. Biroq, bu tizimni yanada rivojlantirish, uning ishlash mexanizmlarini qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash zarur.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi 434-sonli Qarori <https://lex.uz/docs/4354743>.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli qarori.

3. Sh.A.Mamajonov "Oliy ta'lim muassasalarida ekologik tarbiyani amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirish" "FarDU xabarlari", 2023/№6, 28-32-b.

4. Пономарева И.Н. Экологическое понятие, их система и развитие в курсах биологии. –Л.: ЛГПИ, 1989. – С.87.

5. Зверев И.Д., Максимова В.Н. Междисциплинарные связи в современной школе.-М.: Педагогика, 1981.-158с.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, "Xalq so'zi" gazetasi, 2019., 9 oktyabr, № 209(7439)-son.